



## OITS VA UNING OLDINI OLİSH CHORALARI

Sherzodova Parvina Shezod qizi

**Annotatsiya:** Maqolada OITS kasalligini tarqalish mexanizmlari, kelib chiqish sabablari va xayfini kamaytirish choralar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek himoyalangan jinsiy aloqa, doimiy sherik bilan munosabatlar, streril tibbiy asboblar, qon mahsulotlarining nazorati, homilador ayollarda virusning oldini olish hamda tibbiy marifiy ishlarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek dunyo bo'ylab virusni tarqalish koefsenti va olib borilayotgan chora -tadbirlar haqida bayon etilgan. shuningdek yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish takidlangan.

**Kalit so'zlar:** OITS, OIV, virus, profilaktika, antiitulo, himoyalangan jinsiy aloqa, opportunistik infeksiyalar, ART, simptomlar, limfodenopiyasi, CD4 hujayralari, PrEP, PEP.

### Kirish

OITS-orttirilgan immunitet tanqisligi sindiromi bo'lib inson organizimida immunitet himoya kuchlarini kamayishi bilan kechuvchi og'ir yuqumli kasallik. OITS-OIV infeksiyasingin oxirgi(terminal)bosqichi. Bu virus ilk marotoba Lui Montani tomonidan aniqlangan. Bemor qoni,limfasi orqa miya suyuqligida ko'p uchraydi. Virus organizmni himoya qiluvchi oqsil antitilolar ishlab chiqaradigan qon hujayralari-limfositlarni zararlaydi. Natijada immunitet keskin pasayib orgazim nimjon bo'lib qolishi oqibatida,kasalliklarni o'ziga jalb qilivchi bo'lib qoladdi. OITS dastlabki rivojlanish bosqichlarida davolansa ,rivojlanish xavfi kata bo'lib,opportunistik infeksiyalar,xavfli o'smalar,yurak-qon tomir asoratlari va inson immunitetini pasayishi natijasida boshqa kasalliklar ham kelib chiqadi. Dunyo miqyosida OITS bilan kasallanganlar va bu kasallikni oldini olish dolzrab masala hisoblanadi. Juhon sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra dunyo miqyosida HIV bilan yashovchi odamlar 38 millionni tashkil qilmoqda. Yangi yuqishlar soni yiliga 1.5million,o'limlari 650 ming o'limlar sonini tashkil qilmoqda. To'g'ri hozirgi kunda OITS bilan kasallanganlar soni sezilarli darajada kamaygan. Ammo ba'zi mintaqalarda hali hamon o'sishda davom etmoqda. Bularga Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqalari misol bo'la oladi. Ming afsuslar bo'lsinki O'zbekistonda ham HIV bilan zararlanishlari soni ortib bormoqda. Ammo bu kasallik buyicha keskin kurashlar olib borilmoqda. O'zbekistonda ART(Antiretvirus teripayasi) taminlash yuqori hisoblanadi. O'zbekistonda bu kasallik buyicha alohida qonunlar joriy qilingan. Kasallik bo'yicha kurashish buyicha ilk marotoba Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 7-iyunda qabul qilingan, Senat tomonidan 2013- yil 22-avgustda ma'qullangan. Afsuski virusni qasddan yuqtirish holatlari ham uchrab turibdi bu esa jinoyat hisoblanadi, jazo turi vaziyatga qarab jarima,ma'lum muddat ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llanadi(jinoyat kodekisi 113-modda)



Har birimiz o'z sog'ligimizga e'tiborli bo'lib, avvalam bor shaxsiy gegeniya qoidalariga amal qilsak. Nafaqat o'zimizni balki atromizdagi insonlarni sog'ligiga va O'zbekiston kelajagi uchun kata hissa qo'shgan bo'lamic.

XXI asr o'lati ko'rinas dushman va insoniyat tahdidi: Virus dastlab ko'rinas sifatida faoliyat yuritadi, u hujayralarga kirib immunitet tizimini yoq qiladi va o'zi yakka hukmronlik bosqichiga o'tmoqchi bo'ladi. Dastlabki bosqichlarda simptomlar (kasallik bo'yicha o'zgarishlar) kam bo'lgani uchun inson o'zini sog'lam deb o'ylaydi. Simptomlarga oddiy misol: bosh ogrig'i, isitma, yo'tal, charchoq, ich ketishi misol bo'la oladi. Bemor bunga odatiy hol misolida yoki charchagani uchun bosh og'rig'i kuzatildi yoki muzdek biror nima yegani tufayli deb o'ylashi mumkin. Natijada yo'tal yoki istima kuzatildi oddiy shamollash deb notog'ri tashxis qoyishi mumkin. Kasallik kuchli avj olishiga olib kelib o'lim koefsentini sezilarli darajada oshirishi mumkin. OITS bosqichlari beshta bosqichdan iborat. Bu bosqichlar inkubatsiya, o'tkir davr, lantetlik, OITSdan oldingi davr va oxirgi OITS terminal davri. Endi bosqichlari bilan tanishib chiqsak. Inkubatsiya davri bu davrda deyarli belgilar kuzatilmaydi, 14 kundan 1 yilgacha davom etadi. Virus organizmga kirkach klinik belgilari sezilmaydi. Bu davrda ham virusni aniqlash mumkin faqat labarator testlar orqali. Keyingi bosqich, O'tkir davri yoki akut infeksiya davri, yuqtirgandan 2-6 hafta bazan 30 kun o'tib namoyon bo'ladi. Belgilari grippga o'xshash isitma, bosh og'rig'i, limfa tugunlarini kattalashishi, turli toshmalar, stomatit, sovqotish, bedarmonlik, ko'ngil aynishi, faringit kabi holatlar kuzatiladi. Bu davrda virus tez ko'payadi, lekin keyin belgilari yo'qoladi. 3-davr Lantent yoki yashirin davri o'rtacha 5 va 10 yil davom etadi. Belgilari deyarli yo'q odam o'zini so'glomdek his qiladi. Limfadenopiya-limfa bezlarini o'griqsiz yiriklashuvi kuzatiladi, lekin immunitet keskin pasayib CD4 hujayralari kamayadi. 4-davr OITSdan oldingga davr bu davr 1-2 yil davom etadi. Bu davrda immunitet pasayishi stomatit, gerpes, landidoz, til lekopilikasi kabi kasalliklarni takrorlanishi kuzatiladi. 5-davr oxirgi terminal davri hisoblanadi. Bu davrda immunitet tizimi juda zaiflashadi, vazn yuqotish, doimiy isitma, saraton, kuchli charchoq, zamburug'li kasaliklar, ensefalit, o'pka yallig'lanishi, toksoplazmoz, sil, pnevmoniya, plamoz, limfoma, salmonelloz, kandidoz, gripp, gerpes, meningt va barcha yuqumli kasalliklarni o'ziga jalb qiladigan bo'lib qoladi. Bu davr 3 yilgacha ba'zan 1 yilgacha davom etadi.

OITS – XXI asr o'lati. Birinchi dekabr-Ummum jahon OITSga qarshii kurashish kuni.

OITS qanday yuqadi va uning oldini olish chora tadbirdari; Virus bemor organizmdagi hamma biologik suyuqlilar-qoni, limfasi, sperma, orqa miya suyuqligi, qin ajratmasi va ko'krak sutida uchraydi. Kasallik 3 xil yo'l bilan yuqadi. Bular himoyalangan jinsiyo aloqa, tabiy yo'l ya'ni onadan bolaga bu asosan sut orqali yuqadi, suniy yo'l bilan bular nostirel: tibbiy asboblar, igna, shpris, tish cho'tka umumiyl ishlatilganda yuqishi mumkin. Qanday hollarda OITS yuqmasligi mumkin; ko'pchilik insonlar kimningdur OITS bilan kasallanganini eshitsa undan o'zini olib qochishga harakat qiladi va muloqat qilmaslikka harakat qilishadi. Bu esa bemor ruxiyatiga kuchli ta'sir qilib axvolini yanada og'irlashishiga olib kelishi mumkin. Aslida esa muloqat qilganda, dush qabul.



qilganda,salomlashganda,umumiy transport vositalarida yurganda,basenda,idish-tovoq,kiyim-kechak,hojatxona,hashorat chaqish orqali,quchoqlashish,birga ovqatlanish orqali yuqmaydi.

Kasallikni davolash usuli yo'q ,lekin uni nazorat qilish uchun antiretovirus terapiyadan foydalanadi bu qisqacha ART deyiladi.ART- bemor umrini uzaytiradiva sifatini yaxshilaydi ,virusni boshqalarga yuqishini kamaytiradi.OITS ga qarshi vaksina hozircha yaratilmagan,bu kasallik bilan kasallangan inson ko'rinish jihatdan sog'lom ko'rinsada,aslida esa virusni yuqtirishi mumkin.Virusni qanday qilib oldini olsak bo'ladi;Prezervativ ishlatish-himoyalangan jinsiy aloqa,steril asboblar ishlatish kerak,igna va shpirstlarni faqat yangisini ishlatish lozim,vaqtı-vaqtı bilan OIV ga test topshirib turish darkor,homilador ayollarni tekshirish.Virus uchun alohida dorilar yaratilgan bular PrEP,PEP.

PrEP-HIV yuqtirmagan lekin xavf ostidagi odamlar uchun dorilarni oldindan ichish.

PEP-xavfli aloqa yoki qon orqali kontakt bo'lgach 72 soat ichida dorilarni qabul qilish.

OIV bilan yashovchi odamlar dori ichsa,virusni boshqalarga yuqtirishi deyarli nolga teng.

OITS atrofimizda ko'plab uchraydi vaqtı-vaqtı bilan test topshirib turish o'z sog'lig'imiz uchun foydali,tekshiruv bosqichlari haqida aytib o'taman.OIV testi-bu testing o'zi ham serogolik testlar va ,antigen testlarga bo'linadi,molekulyar testlar, yuqtirilgan bosqichdagi testlar,virus rrararini baholash testlari.

### Xulosa

OITS-Odam immunun tanqisligi sendiromin hozirgi kundagi kata muomolardan biri hisoblanadi.Bu virus OIV(inson immunun tanqisligi virusi) orqali kelib chiqadi va immunin tizimini zaiflashishiga olib keladi.Bu kasalikni davosi hozircha topilmagan shuning uchun uni davolashdan ko'ra oldini olish samaraliroq. Profilaktikani asosiy yo'llari-xavfsiz jinsiy aloqa,stirel tibbiy asboblar(shpires va igna)donor qonini xavfsiz ehtiyojkorlik bilan zinchiklab tekshirish,homilador ayollarni doimiy ravishda testdan o'tkazib tekshirib turish kerak,ART ni dunyo miqyosida yoyish virus xavfini yanada kamaytiradi.Virus qo'l berib ko'rishganda, quchoqlashganda, yo'talganda, aks urganda, umumiy telefondan foydalanganda, bassen,hammom,hojatxonadan foydalanganda, hashoratlar chaqganda, umumiy idish tovoqdan foydalanganda, kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak orqali yuqmaydi.S huningdek PrEP va PEP dori vositalari muhim hisoblanadi.Xalqaro tashkilotlarni ma'lumotlariga ko'ra,OIV bilan kasallangan bemorlar doimiy ravishda dori vositalarini qabul qilib tursa virus ma'lum miqdorda kamayadi va boshqalarga yuqushi nolga teng bo'lib qoladi.Virus yuqishini oldini olish uchun har kim o'z sog'lig'iga e'tiborli bo'lishi lozim bu jamiyat va millat uchun ham juda muhim.OITSni nazorat qilish mumkin,lekin bning uchun global hamkorlik,doimiy profilaktika va har bir insonning ma'sulyati juda zarur.Respublikamizda barcha ma'muriy hududlarda OITSga kurash markazlarida ishonch va anonim xizmat ko'rsatish xonalari faoliyat yuritmoqda. Bu kabi joylarda bepul maslahat olib, hattoki bepul labaratoriya xizmatidan ham foydalanishi mumkin.Aytish joizki,insonni



qachon ongi va sog'lig'iga nisbatan ma'sulyati oshganda ushandagina virusga qarshi kurash samarali foyda berishi mumkin.Buning birdan bir yo'li sog'lom turmush tarzidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Anotomiya darsligi (2017)
2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti
3. O'zbekiston Respublikasi OITSga qarashi kurashish markazi anonym test va profilaktika haqida malumotlar
4. Xalqora OITS fedratsiyasi
5. Ilmiy maqla PMC(2021)
6. UNAIDC
7. CDC

